

## SHARQ VA G'ARB MADANIYATLARIDA AXLOQIY-ESTETIK QARASHLARNING EVOLYUTSIYASI

*Abduraxmonov Shoxrux Dilshod o'g'li*  
*Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sharq va G'arb madaniyatlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning axloqiy-estetik qarashlari hamda tarixiy taraqqiyot jarayonidagi o'zaro ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasidagi madaniy muloqotning shakllanish bosqichlari, uning falsafiy va estetik asoslari yoritilgan. Shuningdek, musulmon Sharqi mutafakkirlarining G'arb falsafasi va estetik tafakkuri rivojiga ko'rsatgan ta'siri, xususan, Gyote, Gegel va Kant qarashlarining Sharq falsafasi bilan mushtarak jihatlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Maqolada globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, madaniyatlararo muloqotning ma'naviy taraqqiyotdagi ahamiyati hamda Sharq va G'arb madaniy merosining zamonaviy jamiyat rivojidadagi o'rni ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Sharq madaniyati, G'arb madaniyati, madaniyatlararo muloqot, axloqiy-estetik qarashlar, globallashuv, sivilizatsiyalararo hamkorlik, estetik tafakkur, falsafiy meros, Immanuil Kant, Iogann Volfgang fon Gyote, Georg Gegel, Imom G'azzoliy, Abu Nasr Forobiy, tasavvuf falsafasi, umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy taraqqiyot.

### Introduction

Bugungi globallashuv sharoitida Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasidagi madaniy muloqot insoniyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biriga aylanib bormoqda. Ushbu jarayonda axloqiy va estetik qarashlarning shakllanishi hamda rivojlanishi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki axloq va estetika jamiyatning ma'naviy asoslarini belgilovchi, shaxs dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va madaniy tafakkurini shakllantiruvchi asosiy mezonlar hisoblanadi. Sharq va G'arb madaniyatlari tarixiy taraqqiyot davomida o'ziga xos axloqiy-estetik tizimlarni yaratgan bo'lsa-da, ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir va uyg'unlashuv jarayoni umumiy insoniy qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qilib kelmoqda.

Tarixiy manbalarga nazar tashlansa, Sharq madaniyatida axloqiy kamolot, ma'naviy poklik hamda go'zallikni ichki ruhiy uyg'unlik bilan bog'lash ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lgan. G'arb madaniyatida esa estetik tafakkur ko'proq ratsionalizm, individuallik va erkinlik g'oyalari bilan uyg'un holda rivojlangan. Biroq madaniyatlararo muloqot jarayonida ushbu qarashlar bir-birini boyitib, yangi axloqiy-estetik konsepsiyalarning shakllanishiga zamin yaratgan. Ayniqsa, ilm-fan, adabiyot,

san'at va falsafa sohalaridagi o'zaro ta'sir axloqiy-estetik qarashlar rivojlanishining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy davrda axborot texnologiyalari va globallashtirish jarayonlarining jadallashtirishi Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy muloqotni yangi bosqichga olib chiqdi. Natijada axloqiy-estetik qadriyatlar global miqyosda qayta talqin qilinmoqda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, Sharq va G'arb madaniy muloqoti doirasida axloqiy-estetik qarashlarning shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarini ilmiy jihatdan o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Sharq va G'arb madaniy muloqoti jarayonida axloqiy-estetik qarashlarning tarixiy-falsafiy asoslarini, ularning o'zaro ta'siri hamda zamonaviy rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash, ma'naviy taraqqiyotni rivojlantirish hamda estetik tafakkurni boyitishga xizmat qiladi.

### **Materials and Methods**

Mazkur tadqiqotda Sharq va G'arb madaniyatlarining axloqiy-estetik qarashlari hamda ularning tarixiy taraqqiyot jarayonidagi o'zaro ta'siri ilmiy tahlil qilindi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini Sharq va G'arb mutafakkirlarining falsafiy, estetik va madaniy merosiga oid ilmiy manbalar, monografiyalar, maqolalar hamda tarixiy-falsafiy asarlar tashkil etdi. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Imom G'azzoliy, Ibn Rushd, Iogann Volfgang fon Gyote, Immanuil Kant va Georg Vilgelm Fridrix Gegelning madaniyat, axloq va estetika masalalariga bag'ishlangan qarashlari tadqiqotning asosiy manbalari sifatida o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida tarixiylik metodi yordamida Sharq va G'arb madaniyatlarining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Qiyosiy-tahliliy metod orqali mazkur madaniyatlarning axloqiy va estetik qarashlaridagi umumiy hamda o'ziga xos jihatlari aniqlandi. Tizimli yondashuv asosida madaniy muloqotning falsafiy, ijtimoiy va ma'naviy omillari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Shuningdek, germenevtik metod yordamida mutafakkirlarning asarlari va estetik qarashlari mazmunan sharhlanib, ularning zamonaviy madaniy jarayonlar bilan aloqadorligi yoritildi.

Tadqiqotda ilmiy umumlashtirish, mantiqiy tahlil va sintez usullaridan ham foydalanilib, Sharq va G'arb madaniyatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirning axloqiy-estetik tafakkur rivojiga ko'rsatgan ta'siri yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

### **Results**

Milliy va umuminsoniy madaniyatlar uyg'unligi yuksak taraqqiyotning muhim garovlaridan biridir. Hech kimga sir emaski, Sharq va G'arb o'rtasida doimo o'zaro aloqadorlik va samarali madaniy muloqotni yo'lga qo'yishga intilish ustuvor ahamiyat kasb etib kelgan. O'rta asrlarda musulmon Sharqi allomalari yunon madaniyati,

jumladan, uning falsafasini chuqur o'rganib, sharhlab, undagi g'oyalarni ijodiy rivojlantirgan bo'lsalar, XVII asr oxiri – XIX asr boshlarida G'arb uchun Sharq olamiga qiziqish shu darajada ortib ketdiki, bu davrni ayrim tadqiqotchilar “G'arbdagi Sharq renessansi davri”[4:301], ya'ni Sharq klassik adabiyoti va ilm-fanining G'arb uyg'onishiga ta'sir etgan davri sifatida talqin etadilar. Shuningdek, bu jarayon “oriyentalizm”, ya'ni Sharqqa qiziqish, Sharq madaniyati va uning ekzotik jihatlariga bo'lgan intilish sifatida ham izohlanadi. Mazkur holat romantik adabiyot va san'at uchun ham muhim ilhom manbai bo'lganini alohida ta'kidlash lozim.

Ushbu jarayon natijasida XVII–XVIII asrlarda G'arbda filooriyentalistik oqim shakllanib, uning yuksak badiiy va falsafiy namunalari yaratila boshlandi. Fransua Volterning Sharqona ruhdagi dramaturgiyasi, Sharl Lui Monteskyening “Fors xatlari”, Iogann Gotfrid Gerderning “Xalqlar ovozi”, Iogann Volfgang fon Gyotening “G'arbu-Sharq devoni” kabi asarlar bunga yorqin misoldir. Xususan, nemis mumtoz falsafasi vakillari Sharq madaniyati va Islom dinini yuqori qadrlab, o'z asarlarida bu hurmatni ifoda etganlar.

#### Discussion

Iogann Volfgang fon Gyote ijodida Sharqqa bo'lgan qiziqish yaqqol namoyon bo'ladi. U o'z maktublaridan birida protestant gimnaziyasida o'tkazilgan musulmonlar marosimida ishtirok etganini, u yerda “Qur'oni Karim”dan xabardor mehmon sifatida e'tirof etilib, o'q-yoy bilan taqdirlanganini faxr bilan yozadi. Shuningdek, u ba'zi aristokrat xonimlarning ushbu voqeadan so'ng kutubxonalardan Qur'oni Karimni so'rab olganliklarini ham qayd etadi. Gyotening “G'arbu-Sharq devoni” asarida esa u Sharq va G'arb o'rtasidagi ma'naviy yaqinlikni falsafiy-badiiy tarzda ifodalaydi. Asarda u yagona Xudo g'oyasi va Muhammad (s.a.v.)ning payg'ambarligi haqidagi qarashlarga ham murojaat qiladi.

Shu sababli hanuzgacha Gyote Islomni qabul qilganmi yoki yo'qmi, degan masala ilmiy va adabiy doiralarda bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Sharq haqida Germaniya mumtoz falsafasining yirik vakili Georg Vilgelm Fridrix Gegel esa shunday yozadi: “Falsafa, fan va san'at varvarlar hukmronligi davrida tanazzulga uchradi, biroq ular arablar qo'liga o'tgach, u yerda rivoj topdi va keyinchalik G'arpga ham qayta kirib kela boshladi. Shu bois arab falsafasi va ilm-fani tarixiy jihatdan muhim o'rin tutadi”[2:42].

Olmon mumtoz davri estetikasi asoschisi bo'lgan Immanuel Kant Gotfrid Gerder bilan bo'lgan bahsida Ibn Rushdning “...har birimizda individual ruhdan tashqari, umumiy ruh ham mavjud bo'ladi” degan g'oyasini yuksak baholagan. Bizningcha, Kantning transsendental ta'limoti asosida ibn Rushdning aynan mana shu g'oyasi yotadi. Faylasufning transsendentallik: “...individual xususiyat, u insonga emas butun insoniyatga nisbatan individual bo'ladi”[5:12] degan ta'rifi fikrimizga yaqqol dalildir.

Biroq Immanuil Kant Sharqni ulug'lash yoki uni ideallashtirish yo'lidan bormaydi. Aksincha, u "Falsafa tarixi haqidagi qisqacha ocherk" asarida "forslar va arablarda aqlni muayyan ma'noda spekulativ qo'llashga urinishlar bo'lgan bo'lsa-da, ularda hamda Zardushtning "Zend-Avesta"sida falsafaning haqiqiy izlarini topib bo'lmaydi"[3:42], degan fikrni ilgari suradi. Shunga qaramay, qiziq jihati shundaki, Kant ijodida, xususan uning estetik qarashlarida musulmon Sharqi allomalari bilan mushtarak jihatlar mavjudligini kuzatish mumkin.

#### Conclusion

Birinchi, Kant G'arb ilmiy tafakkurida Kopernik tomonidan ilgari surilgan geliosentrik nazariya orqali chetga surilgan antroposentrizm g'oyasini ma'lum ma'noda qayta tiklagan faylasuf sifatida talqin qilinadi. Ya'ni u sayyoralar Yer atrofida aylanishi emas, balki inson aql-idroki va tafakkuri markaziy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning falsafasida borliq inson ongiga bog'liq holda idrok etiladi, deb qaraladi. Shu ma'noda u insonni bilish jarayonining markaziga qo'yadi va bu jihati bilan G'arb falsafasida muhim o'rin egallaydi. Biroq bunday g'oya Sharq falsafasi uchun mutlaqo yangi emas edi. Musulmon mutafakkirlari, xususan tasavvuf falsafasida insonning ma'naviy kamoloti, uning ichki olami va ilohiy haqiqatni anglash imkoniyatlari allaqachon chuqur asoslab berilgan edi. Boshqacha aytganda, Kantning o'zi "Kopernikona inqilob" deb atagan g'oyalar Sharq metafizik tafakkurida muayyan darajada allaqachon mavjud bo'lgan qarashlarga yaqinlashadi.

Ikkinchi, Kantning estetik qarashlarida sof go'zallik tushunchasi alohida o'rin tutadi. U go'zallikning asosiy belgilaridan biri sifatida uning beg'araz va manfaatdan xoli xususiyatini ta'kidlaydi. Biroq bu g'oyaning mazmuniy jihatlari Sharq tafakkurida, xususan Imom G'azzoliy qarashlarida XII asrlardayoq chuqur ishlab chiqilgan edi. G'azzoliy ta'limotida Allohga muhabbatdan keyingi o'rinda turuvchi go'zallikka bo'lgan muhabbat ham beg'araz tabiatga ega ekani asoslab berilgan. Shuningdek, Kantning "go'zallik maqsadsiz maqsadga muvofiqlik" haqidagi qarashlari Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi ba'zi falsafiy-estetik mulohazalar bilan ham ma'lum darajada uyg'unlik kasb etadi[1:23].

Uchinchi, Kant estetikasida go'zallik va ulug'vorlik kategoriyalari markaziy o'rin egallaydi. U ulug'vorlikni matematik va dinamik turlarga ajratib, uni inson aqli va tasavvur imkoniyatlari bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Kantga ko'ra, ulug'vorlik tabiatda tayyor holda mavjud emas, balki insonning ma'naviy va aqliy idroki orqali anglanadi. Inson ulug'vorlikni tashqi olamdan emas, balki o'z ichki dunyosi, axloqiy va estetik ideallaridan kelib chiqib idrok etadi. Bu g'oya ayniqsa e'tiborga loyiqdir, chunki u kichik va oddiy ko'rinadigan narsa-hodisalar ham inson tafakkurida ulug'vorlik hissini uyg'otishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shu ma'noda Kantning qarashlari islom estetikasi va tasavvufiy falsafadagi "borliqdagi har bir zarra ilohiy go'zallik va ulug'vorlik ifodasidir" degan g'oyaga

yaqinlashadi. Ayrim tadqiqotchilar, jumladan Y.A. Frolova ham Kant ta'limotini tasavvufiy-mistik qarashlarga yaqin falsafiy yechim sifatida talqin qiladi.

### References

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Yangi asr avlodi. 2024-yil.
2. Achildiyev A.S. Milliy g'oya va tarbiya – millatlararo munosabatlarni takomillashtirish omili. – Y.: Fan 2004-yil.
3. Fridirix Nitshe. Zardusht tavallosi. Tarjimon: Ibrohim G'ofurov. –T.: Yangi asr avlodi. 2025-yil.
4. Yaxshilikov J.Ya. Falsafa. Darslik. –Samarqand.: SamDU. 2025-yil.
5. Кант И.. Сочинения в 8 т. –М.: Чоро.1998.
6. SODIKI, NN, et al. "SOME ASPECTS OF THE ANTHROPOLOGICAL TEACHING OF MIRZA ABDULKODIR BEDIL." Scientific publishing house Infinity, Moscow КОНФЕРЕНЦИЯ: GLOBAL PERSPECTIVES IN SCIENCE, EDUCATION AND APPLIED RESEARCH Delhi, India, 21 мая 2025 года Организаторы: Scientific publishing house Infinity, Moscow.
7. Yaxshilikov, J., and N. Muhammadiev. "National idea-development strategy." *T., Fan nashriyoti* 158 (2017).
8. Yaxshilikov, J. J. "Muhammadiev N. Muhammadiev NE Philosophy. Textbook (for all bakalavr directions)." *Samarkand: SamSU* (2021): 150.
9. Yaxshilikov, J. "Ya. Muhammadiyev NE Milliy g 'oya: O 'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik." *T.: Cho 'lpon nomidagi nashriyot* (2018): 516-517.
10. Xoliqulov, Muhammad Qaxor O'G'Li. "MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNING JAMIYAT STRUKTURASIDAGI O'RNI VA ROLI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.26 (2024): 384-388.
11. O'G'LI, XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR. "GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN." *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences* 4 (2024): 22-27.
12. Kholikulov, Mukhammad. "Scientific-Theoretical and Philosophical Origin of the Doctrine of Unity in Sufism." (2023).
13. Muhammad, Xoliqulov. "GLOBALLASHUV SHAROITIDA YUZ BERAYOTGAN GEOMAFKURAVIY JARAYONLAR TADQIQINING FALSAFIY-METADOLOGIK ASOSLARI." *Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar* 1.3 (2025): 105-109.
14. Sadriyevna, Azizova Laylo, and Xoliqulov Muhammad Qaxor o'g'li. "KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI." *BARCHA SOHALAR BO 'YICHA* 32 (2023).